

Zokirjonov Diyorbek Zafarjon o'g'li

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Patologik fiziologiya va patologik anatomiya kafedrası assistenti

zokirjonovdiyorbek996@gmail.com

**TIBBIY TA'LIMDA KLINIK O'RGANISH METODINING GLOBAL
RIVOJLANISHI: TENDENSIYALAR, ILMIY TA'SIR VA TADQIQOTLAR
LANDSHAFTINING BIBLIOMETRIK TAHLILI (2000–2025)**

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot tibbiy ta'limda klinik o'rganish (clinical learning) yo'nalishida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning global rivojlanish tendensiyalari, ilmiy ta'siri va tadqiqotlar landshaftini bibliometrik tahlil asosida o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda 2000–2025 yillar oralig'ida chop etilgan ilmiy maqolalar tahlil qilinib, ularning vaqt bo'yicha dinamikasi, geografik va institutsional taqsimoti hamda eng ko'p iqtiboslangan ilmiy ishlar aniqlangan. Natijalar clinical learning sohasida ilmiy faollikning barqaror o'sib borayotganini ko'rsatdi. 2000–2006 yillarda nashrlar soni past bo'lgan bo'lsa, 2007–2014 yillarda sezilarli o'sish kuzatildi. 2015–2019 yillarda barqaror rivojlanish davom etib, 2020–2024 yillarda keskin o'sish qayd etildi. Eng yuqori ko'rsatkich 2024 yilda kuzatildi. Geografik tahlil natijalariga ko'ra, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliya yetakchi o'rinlarni egallagan. Institutsional tahlil esa Harvard Medical School, University of Toronto va boshqa yetakchi markazlarning muhim hissasini ko'rsatdi. Eng yuqori iqtiboslangan maqolalar tahlili clinical learning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirgan fundamental tadqiqotlarni aniqlash imkonini berdi. Xulosa qilib aytganda, clinical learning tibbiy ta'limda tez rivojlanayotgan ilmiy yo'nalish bo'lib, uning kelajakdagi rivoji innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: Klinik o'rganish, tibbiy ta'lim, bibliometrik tahlil, ilmiy tadqiqotlar trendi, ilmiy ta'sir, klinik kompetensiya, simulyatsion ta'lim, tadqiqotlar landshafti, innovatsion pedagogika, global ilmiy faollik.

Зокиржонов Диёрбек Зафаржон угли

Ферганский институт общественного здравоохранения и медицины

Ассистент, кафедра патологической физиологии и патологической

анатомии

**ГЛОБАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ МЕТОДОВ КЛИНИЧЕСКОГО
ОБУЧЕНИЯ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ:
БИБЛИОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕНДЕНЦИЙ, НАУЧНОГО
ВЛИЯНИЯ И ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО ЛАНДШАФТА (2000–2025
ГГ.)**

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению глобальных тенденций развития, научного влияния и структуры научных исследований в области клинического обучения (clinical learning) в медицинском образовании на основе библиометрического анализа. В работе проанализированы научные публикации за период 2000–2025 гг., определены их временная динамика, географическое и институциональное распределение, а также наиболее цитируемые исследования. Результаты показали устойчивый рост научной активности в области clinical learning. В 2000–2006 гг. количество публикаций оставалось относительно низким, однако в 2007–2014 гг. наблюдался значительный рост. В 2015–2019 гг. развитие носило стабильный характер, тогда как в 2020–2024 гг. зафиксирован резкий рост публикационной активности. Наибольшее количество публикаций отмечено в 2024 году. Географический анализ показал, что лидирующие позиции занимают США, Великобритания, Канада и Австралия. Институциональный анализ выявил значительный вклад ведущих научных центров, таких как Harvard Medical School и University of Toronto. Анализ наиболее цитируемых работ позволил определить фундаментальные исследования, сформировавшие теоретические и практические основы clinical learning. В заключение, clinical learning является быстро развивающимся научным направлением в медицинском образовании,

дальнейшее развитие которого тесно связано с внедрением инновационных педагогических подходов.

Ключевые слова: Клиническое обучение, медицинское образование, библиометрический анализ, тренды научных исследований, научное влияние, клиническая компетентность, симуляционное обучение, научный ландшафт, инновационная педагогика, глобальная научная активность.

Zokirjonov Diyorbek Zafarjon o'g'li

Fergana Medical Institute of Public Health

Assistant, Department of Pathological Physiology and Pathological

Anatomy

**GLOBAL DEVELOPMENT OF CLINICAL LEARNING METHODS
IN MEDICAL EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF TRENDS,
SCIENTIFIC IMPACT, AND RESEARCH LANDSCAPE (2000–2025)**

Abstract. This study aims to analyze the global development trends, scientific impact, and research landscape of clinical learning in medical education using a bibliometric approach. Scientific publications published between 2000 and 2025 were examined to identify temporal dynamics, geographical and institutional distribution, and the most highly cited studies in this field. The results demonstrate a steady increase in scientific activity related to clinical learning. During 2000–2006, the number of publications remained relatively low; however, a significant rise was observed in 2007–2014. This growth continued steadily in 2015–2019, followed by a sharp increase in 2020–2024. The highest number of publications was recorded in 2024. Geographical analysis revealed that the United States, the United Kingdom, Canada, and Australia are leading contributors to clinical learning research. Institutional analysis highlighted the significant role of leading academic centers such as Harvard Medical School and the University of Toronto. Furthermore, the analysis of highly cited articles identified key studies that have shaped the theoretical and practical foundations of clinical learning. In conclusion, clinical learning represents a rapidly evolving field in medical education, with its

future development closely linked to the implementation of innovative pedagogical approaches and advanced educational technologies.

Keywords: Clinical learning, medical education, bibliometric analysis, research trends, scientific impact, clinical competence, simulation-based education, research landscape, innovative pedagogy, global scientific activity.

Kirish

Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida klinik o'rganish (clinical learning) talabalarining nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan integratsiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimidagi murakkabliklar va innovatsion pedagogik yondashuvlarning rivojlanishi ushbu yo'nalishga bo'lgan ilmiy qiziqishni keskin oshirdi. Ayniqsa, simulyatsion ta'lim, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi clinical learning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarning global rivojlanish dinamikasi, yetakchi markazlar va asosiy ilmiy yo'nalishlarni tizimli tahlil qilish zarurati mavjud. Shu bois mazkur tadqiqot bibliometrik yondashuv asosida amalga oshirildi.

Adabiyotlar tahlili

Klinik o'rganish (clinical learning) tibbiy ta'limda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan integratsiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu jarayon ko'pincha tajribaga asoslangan o'rganish modeli orqali izohlanib, Dornan va hammualliflar tomonidan klinik muhitda bilim shakllanishining asosiy mexanizmlari ko'rsatib berilgan [1]. Klinik ta'lim muhitining o'rni Spencer (2003) hamda Hoffman va Donaldson (2004) tadqiqotlarida yoritilib, ijtimoiy va tashkiliy omillarning o'qitish samaradorligiga ta'siri ta'kidlangan [2,4]. Shuningdek, workplace learning konsepsiyasi Eraut (2007) va Teunissen hamda Dornan (2008) tomonidan asoslab berilgan [8,9]. Yardley va hammualliflar (2012) hamda Irby (2014) refleksiya va mentorlikning klinik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi muhim rolini ko'rsatgan [3,7]. So'nggi tadqiqotlarda esa simulyatsion ta'lim va

innovatsion pedagogik texnologiyalar clinical learning samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida e'tirof etilgan [5,6,10].


Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot bibliometrik tahlil usuli asosida amalga oshirildi. Tadqiqot uchun ma'lumotlar bazasi sifatida Web of Science va Scopus platformalaridan foydalanildi, chunki ushbu bazalar ilmiy nashrlarning keng qamrovli va ishonchli manbasi hisoblanadi [11,12]. Qidiruv jarayonida "clinical learning", "medical education", "clinical teaching" va "workplace learning" kabi kalit so'zlar kombinatsiyasi qo'llanildi. Tadqiqotga 2000–2025 yillar oralig'ida chop etilgan ilmiy maqolalar kiritildi. Dastlabki qidiruv natijalari orasidan dublikatlar, mavzuga aloqador bo'lmagan hamda to'liq matni mavjud bo'lmagan maqolalar chiqarib tashlandi. Yakuniy tahlil uchun tanlab olingan maqolalar bibliometrik mezonlar asosida shakllantirildi [13]. Ma'lumotlar tahlili jarayonida nashrlar sonining yillar bo'yicha dinamikasi, davlatlar kesimidagi taqsimoti, yetakchi ilmiy institutlar hamda eng ko'p iqtiboslangan maqolalar aniqlandi. Bibliometrik ko'rsatkichlar sifatida maqolalar soni, iqtiboslar darajasi va ilmiy faollik indikatorlaridan foydalanildi [14,15]. Tadqiqot natijalarini vizualizatsiya qilish uchun grafik va diagrammalardan foydalanildi. Ushbu yondashuv ilmiy yo'nalishning rivojlanish tendensiyalarini aniq va tizimli baholash imkonini beradi hamda bibliometrik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi [16].

Natijalar va ularning tahlili

2000–2025 yillar oralig'ida clinical learning yo'nalishidagi ilmiy nashrlarning vaqt bo'yicha taqsimoti tahlil qilindi (1-rasm). Natijalar ushbu sohada ilmiy qiziqishning yildan-yilga barqaror oshib borayotganini ko'rsatdi. Tahlil natijalariga ko'ra, 2000–2006 yillar oralig'ida nashrlar soni nisbatan past bo'lib, yiliga o'rtacha 12–25 ta maqolani tashkil etgan. Bu davrda clinical learning asosan klinik o'qitish muhiti, klinik tajriba orqali o'qitish va an'anaviy klinik ta'lim metodlariga bag'ishlangan tadqiqotlar bilan cheklangan. 2007–2014 yillar


davomida ushbu yo‘nalishdagi ilmiy faoliyatning sezilarli darajada oshishi kuzatildi. Bu davrda clinical learning bilan bog‘liq tadqiqotlar soni yiliga 28 tadan 80 tagacha oshgan. Mazkur o‘shish klinik kompetensiyaga asoslangan ta‘lim modellari, klinik ko‘nikmalarni baholash tizimlari hamda simulyatsiya texnologiyalarining tibbiy ta‘lim jarayoniga keng joriy etilishi bilan izohlanadi. 2015–2019 yillar oralig‘ida nashrlar soni barqaror o‘shishni davom ettirib, 90 tadan 118 tagacha yetgan. Ushbu davrda clinical learning muammolari, klinik ta‘lim muhiti, mentorlik tizimi va klinik tajriba asosidagi o‘qitish usullari keng ko‘lamda o‘rganilgan. 2020–2024 yillar davrida esa nashrlar sonining yanada tez o‘shishi kuzatildi. Ayniqsa 2024 yilda maqolalar soni 175 taga yetib, tadqiqot davridagi eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi. Bu o‘shish tibbiy ta‘lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar, simulyatsion ta‘lim hamda klinik kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘qitish metodlarining keng rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2025 yilda esa nashrlar soni 160 tani tashkil etib, oldingi yilga nisbatan biroz pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, umumiy trend clinical learning yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlarning barqaror rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.




1-rasm. Ilmiy nashrlar dinamikasi

Clinical learning yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarning geografik taqsimoti davlatlar kesimida tahlil qilindi. Natijalar ushbu sohada ilmiy faollik asosan

rivojlangan davlatlarda yuqori ekanligini ko'rsatdi (2-rasm).Tahlil natijalariga ko'ra, AQSh clinical learning bo'yicha ilmiy tadqiqotlar soni jihatidan mutlaq yetakchi bo'lib, jami 420 ta maqola bilan birinchi o'rinni egalladi. AQSh tibbiy ta'lim tizimining rivojlanganligi, yirik ilmiy markazlar mavjudligi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ushbu natijani izohlashi mumkin.Ikkinchi o'rinni Buyuk Britaniya egallab, ushbu davlatda 260 ta ilmiy maqola chop etilgan. Buyuk Britaniya tibbiyot universitetlari clinical learning, clinical education va klinik kompetensiyaga asoslangan o'qitish metodlari bo'yicha faol ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan markazlardan biri hisoblanadi.Keyingi o'rinlarni Kanada (210 ta) va Avstraliya (190 ta) egalladi. Ushbu davlatlarda klinik ta'lim tizimi innovatsion pedagogik yondashuvlar, simulyatsion o'qitish texnologiyalari hamda talabalar klinik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar bilan ajralib turadi.Shuningdek, Germaniya (170 ta), Niderlandiya (150 ta) va Shvetsiya (130 ta) kabi Yevropa davlatlari ham clinical learning yo'nalishida yuqori ilmiy faollik ko'rsatgan.Osiyo davlatlari orasida Xitoy (120 ta), Hindiston (105 ta) va Yaponiya (95 ta) clinical learning tadqiqotlari bo'yicha yetakchi davlatlar qatoridan joy oldi.



2-rasm.Top 10 davlatlar



3-rasm. Top 10 institutlar

Clinical learning yoʻnalishidagi ilmiy tadqiqotlarning institutsional taqsimoti pie chart diagramma yordamida tahlil qilindi (3-rasm). Diagramma ushbu sohada ilmiy nashrlarning qaysi institutlar hissasiga toʻgʻri kelishini foizlarda koʻrsatadi. Natijalarga koʻra, Harvard Medical School ushbu yoʻnalishda eng katta ulushga ega boʻlib, barcha tahlil qilingan institutlar orasida 13.8 % nashrlar hissasini tashkil etdi. Bu natija Harvard universitetining tibbiy taʼlim, klinik kompetensiyalarni rivojlantirish va klinik oʻqitish metodologiyasi sohasidagi yetakchi ilmiy markazlardan biri ekanligini koʻrsatadi. Ikkinchi oʻrinda University of Toronto joylashib, umumiy nashrlarning 12.0 % ini tashkil etdi. Mazkur universitet clinical learning va klinik taʼlim muhitini oʻrganish boʻyicha keng koʻlamli ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Keyingi oʻrinlarni Stanford University (10.8 %) va University College London (10.5 %) egalladi. Ushbu universitetlar klinik taʼlim innovatsiyalari, klinik koʻnikmalarni rivojlantirish va simulyatsiya asosidagi oʻqitish metodlari boʻyicha muhim ilmiy markazlar hisoblanadi. Shuningdek, Karolinska Institute (9.7 %), University of Melbourne (9.3 %) va Johns Hopkins University (9.0 %) ham clinical learning yoʻnalishida sezilarli ilmiy hissaga ega boʻlgan institutlar qatoriga kiradi. Bundan tashqari, University of California (8.8 %), University of Oxford (8.2 %) va McGill University (7.8 %) ham ushbu yoʻnalishda faol ilmiy tadqiqot olib borayotgan yetakchi akademik markazlar sifatida ajralib turadi.

Eng ko'p iqtiboslik keltirilgan maqolalar

No	Avftorlar	Maqola nomi	yil	Jurnal nomi	Iqtiboslar
1	Dornan T., Boshuizen H., King N., Scherpbier A.	Experience-based learning: a model linking the processes and outcomes of medical students' workplace learning	2007	Medical Education	1450
2	Spencer J.	Learning and teaching in the clinical environment	2003	BMJ	1200
3	Yardley S., Teunissen P., Dornan T.	Experiential learning: transforming theory into practice	2012	Medical Teacher	980
4	Hoffman K., Donaldson J.	Contextual tensions of the clinical environment and their influence on teaching and learning	2004	Medical Education	920
5	Bleakley A., Bligh J., Browne J.	Medical education for the future: identity, power and location	2011	Springer	880
6	Cook D., Hatala R., Brydges R.	Technology-enhanced simulation for health professions education	2013	JAMA	850
7	Irby D.	Excellence in clinical teaching: knowledge transformation and development	2014	Medical Education	820

8	Teunissen P., Dornan T.	Lifelong learning at work	2008	BMJ	790
9	Eraut M.	Learning from other people in the workplace	2007	Oxford Review of Education	760
10	Ramani S., Leinster S.	AMEE Guide: Teaching in the clinical environment	2008	Medical Teacher	730

Clinical learning yo‘nalishidagi ilmiy adabiyotlarning ta‘sir darajasini aniqlash maqsadida eng ko‘p iqtibos olgan maqolalar tahlil qilindi (1-jadval). Tahlil natijalari ushbu sohada fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator ilmiy ishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Natijalarga ko‘ra, Dornan T. va hammualliflar (2007) tomonidan chop etilgan maqola 1450 ta iqtibos bilan eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Ushbu tadqiqot klinik muhitda tajribaga asoslangan o‘rganish modelini ishlab chiqqan bo‘lib, tibbiyot talabalari klinik amaliyot jarayonida bilim va ko‘nikmalarni qanday shakllantirishini tushuntirib beradi. Mazkur ish clinical learning nazariyasining muhim konseptual asoslaridan biri sifatida keng e‘tirof etilgan. Ikkinchi o‘rinda Spencer (2003) tomonidan yozilgan “Learning and teaching in the clinical environment” maqolasi joylashib, 1200 ta iqtibos bilan clinical teaching metodologiyasiga oid eng muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqola klinik muhitda o‘qitish jarayonining pedagogik xususiyatlarini tahlil qilgani bilan ajralib turadi. Keyingi o‘rinlarni Yardley va hammualliflar (2012) hamda Hoffman va Donaldson (2004) tadqiqotlari egallab, mos ravishda 980 ta va 920 ta iqtibosga ega bo‘lgan. Ushbu maqolalar clinical learning jarayonining nazariy asoslari hamda klinik muhitda o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, Bleakley va hammualliflar (2011) hamda Cook va hammualliflar (2013) tadqiqotlari ham clinical learning sohasida muhim ilmiy manbalar qatoriga kiradi. Ushbu ishlar tibbiy ta‘lim tizimida innovatsion

pedagogik texnologiyalar, xususan simulyatsiya asosidagi ta'lim metodlarining ahamiyatini yoritib beradi. Bundan tashqari, **Irby (2014)**, **Teunissen va Dornan (2008)**, **Eraut (2007)** hamda **Ramani va Leinster (2008)** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham clinical learning muhitida o'qitish, klinik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ish joyida o'rganish jarayonlarini tahlil qilgan muhim ilmiy ishlar sifatida ajralib turadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari tibbiy ta'limda klinik o'rganish (clinical learning) yo'nalishi so'nggi yillarda jadal rivojlanayotganini ko'rsatdi. Bibliometrik tahlil asosida aniqlanishicha, 2000-yillardan boshlab ilmiy nashrlar soni bosqichma-bosqich oshib borgan va ayniqsa 2020-yildan keyingi davrda keskin o'sish kuzatilgan. Bu holat tibbiy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik yondashuvlar, simulyatsion texnologiyalar hamda kompetensiyaga asoslangan ta'lim modellari keng joriy etilayotganligi bilan izohlanadi. Geografik tahlil clinical learning bo'yicha ilmiy tadqiqotlar asosan rivojlangan davlatlarda, xususan AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliyada yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatdi. Institutsional tahlil esa yetakchi universitet va ilmiy markazlarning ushbu yo'nalishdagi muhim hissasini tasdiqladi. Eng ko'p iqtiboslangan maqolalar esa clinical learning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Umuman olganda, clinical learning zamonaviy tibbiy ta'limning ajralmas qismi sifatida shakllanib, uning samaradorligi klinik muhit, pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalar integratsiyasiga bog'liq. Kelajakda ushbu yo'nalishda innovatsion va interaktiv metodlarni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dornan T., Boshuizen H., King N., Scherpbier A. Experience-based learning: a model linking the processes and outcomes of medical students' workplace learning // *Medical Education*. – 2007. – Vol. 41, No. 1. – P. 84–91.
2. Spencer J. Learning and teaching in the clinical environment // *BMJ*. – 2003. – Vol. 326. – P. 591–594.
3. Yardley S., Teunissen P.W., Dornan T. Experiential learning: transforming theory into practice // *Medical Teacher*. – 2012. – Vol. 34, No. 2. – P. 161–164.
4. Hoffman K., Donaldson J. Contextual tensions of the clinical environment and their influence on teaching and learning // *Medical Education*. – 2004. – Vol. 38, No. 4. – P. 448–454.
5. Bleakley A., Bligh J., Browne J. Medical education for the future: identity, power and location. – Dordrecht: Springer, 2011. – 280 p.
6. Cook D.A., Hatala R., Brydges R. et al. Technology-enhanced simulation for health professions education: a systematic review and meta-analysis // *JAMA*. – 2013. – Vol. 310, No. 21. – P. 2282–2295.
7. Falagas M.E., Pitsouni E.I., Malietzis G.A., Pappas G. Comparison of PubMed, Scopus, Web of Science, and Google Scholar: strengths and weaknesses // *FASEB Journal*. – 2008. – Vol. 22, No. 2. – P. 338–342.
8. Mongeon P., Paul-Hus A. The journal coverage of Web of Science and Scopus: a comparative analysis // *Scientometrics*. – 2016. – Vol. 106, No. 1. – P. 213–228.
9. Page M.J., McKenzie J.E., Bossuyt P.M. et al. The PRISMA 2020 statement: an updated guideline for reporting systematic reviews // *BMJ*. – 2021. – Vol. 372. – P. n71.
10. Donthu N., Kumar S., Mukherjee D., Pandey N., Lim W.M. How to conduct a bibliometric analysis: An overview and guidelines // *Journal of Business Research*. – 2021. – Vol. 133. – P. 285–296.

11. Aria M., Cuccurullo C. bibliometrix: An R-tool for comprehensive science mapping analysis // Journal of Informetrics. – 2017. – Vol. 11, No. 4. – P. 959–975.
12. van Eck N.J., Waltman L. Software survey: VOSviewer, a computer program for bibliometric mapping // Scientometrics. – 2010. – Vol. 84, No. 2. – P. 523–538.
13. Irby D.M. Excellence in clinical teaching: knowledge transformation and development required // Medical Education. – 2014. – Vol. 48, No. 8. – P. 776–784.
14. Teunissen P.W., Dornan T. Lifelong learning at work // BMJ. – 2008. – Vol. 336. – P. 667–669.
15. Eraut M. Learning from other people in the workplace // Oxford Review of Education. – 2007. – Vol. 33, No. 4. – P. 403–422.
16. Ramani S., Leinster S. AMEE Guide No. 34: Teaching in the clinical environment // Medical Teacher. – 2008. – Vol. 30, No. 4. – P. 347–364.